

**AJRALGAN OILALARDA BOLALAR TARBIYASINING PEDAGOGIK  
MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В  
РАЗВЕДЁННЫХ СЕМЬЯХ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ**

**PEDAGOGICAL PROBLEMS OF CHILD REARING IN DIVORCED FAMILIES  
AND WAYS TO OVERCOME THEM**

**Raxmatillayeva Sug'diyona Mahammadjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-kurs magistranti*

[sugdiyonaraxmatulayeva@gmail.com](mailto:sugdiyonaraxmatulayeva@gmail.com)

+998501082338

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar tarbiyasida yuzaga keladigan pedagogik muammolar tahlil qilinadi. Bolalarning psixologik holati, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari hamda ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi omillar yoritib beriladi. Shuningdek, mazkur muammolarni bartaraf etishda pedagogik yondashuvlar, maktab va oila hamkorligi hamda pedagogning kasbiy faoliyatidagi muhim jihatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ajralgan oila, to'liq bo'lmagan oila, bolalar tarbiyasi, pedagogik muammolar, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические проблемы, возникающие в процессе воспитания детей, воспитывающихся в разведённых семьях. Рассматриваются психологическое состояние детей, трудности, возникающие в образовательном процессе, а также факторы, влияющие на их социальную адаптацию. Кроме того, раскрываются педагогические подходы к преодолению данных проблем, значение взаимодействия школы и семьи, а также ключевые аспекты профессиональной деятельности педагога.

**Ключевые слова:** разведённая семья, неполная семья, воспитание детей, педагогические проблемы, социальная адаптация, педагогический подход.

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical problems that arise in the upbringing of children growing up in divorced families. Particular attention is paid to the psychological state of children, difficulties encountered in the educational process, and factors influencing their social adaptation. In addition, the study highlights pedagogical approaches to addressing these problems, the importance of cooperation between school and family, and key aspects of teachers' professional activities.

**Keywords:** divorced family, single-parent family, child upbringing, pedagogical problems, social adaptation, pedagogical approach.

Globalashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda oilaning ijtimoiy barqarorligi, o'zaro totuvlik va tinchlikni saqlash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Oila jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Oiladagi ijtimoiy -psixologik muhit, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar va tarbiyaviy yondashuvlar bolaning dunyoqarashi, xulq-atvori va ta'limdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq hozirgi davrda turli ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy omillar ta'sirida ajralgan oilalar sonining ortib borishi kuzatilmoqda.

Ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar tarbiyasi alohida pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday oilalarda bolalar ko'pincha to'liq tarbiyaviy e'tibor va emotsional qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lishi mumkin. Natijada ularning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi faolligi salbiy tomonga o'zgaradi.

Insonning shaxs sifatida to'laonli rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishining asosiy poydevori oilada qo'yiladi. Oilaning qanday bo'lishi, unda qanday an'ana va qadriyatlar saqlanishi, undagi munosabatlar qanday bo'lishi — shular bolalarning kelajagiga bevosita ta'sir qiladi.

«Oila — inson uchun juda muhim, juda mas'uliyatli ish. Oila jamiyat hayotining to'liqligini ta'minlaydi...», — deb yozgan A. S. Makarenko Biroq so'nggi yillarda jamiyat hayotining «to'liqligini» ko'proq to'liq bo'lmagan oilalar ta'minlamoqda, shuning uchun bugungi kunda biror sababga ko'ra ota yoki onasidan mahrum bo'lgan oilalarda o'sib kelayotgan avlodni to'laonli tarbiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

To'liq bo'lmagan oilalarning soni ortishi muammosi nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik va psixologik muammo sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ushbu muammo muhim va puxta yondashuvni talab qiladi, chunki pedagoglar (T. A. Kulikova, A. V. Mudrik, L. N. Timoshchenko va boshqalar), psixologlar (Yu. P. Azarov, S. V. Kovalyov) va sotsiologlar (T. A. Gurko) tadqiqotlariga ko'ra, to'liq bo'lmagan oila oilaviy tarbiyaning noxush omillaridan biri hisoblanadi. Bu holatning oqibatlarini sifatida quyidagilar kuzatiladi: «qiyin» o'smirlar sonining ortishi, bolalar jinoyatchiligining ko'payishi, qizlarda erta jinsiy hayot boshlanishi, 18 yoshga yetmagan qizlar orasida abortlar sonining oshishi, bularning barchasi tarbiyaning noxush omillarining yaqol namunasidir.

To'liq bo'lmagan oilalarda ko'pincha pedagogik va psixologik muammolar yuzaga keladi. Ko'pincha bu muammolar bolaning ruhiy rivojlanishi va hayoti bilan bog'liq bo'ladi, har bir ota-ona ularni to'g'ri tushunib, sharhlay olmaydi. Bolalar ham paydo bo'ladigan savol va qiyinchiliklar yuzasidan o'zidan boshqa jinsdagi kattaga murojaat qila olmaydilar. Shu sababli, ko'pincha bolaning xatti-harakatlarini noto'g'ri talqin qilish tufayli tushunmovchilik yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda yordam berish uchun ko'pincha pedagog muhim bo'ladi, chunki ko'pincha uchinchi shaxs vaziyatdan chiqish yo'lini topishga yordam beradi. Ota-onaga quyidagilar taklif qilinishi mumkin:

- bolaga o'z his-tuyg'ularini ulashish, bu uchun sirlarni oshkor qilish shart emas;
- bolaning hayotida sodir bo'layotgan voqealarga chin dildan qiziqish bildirish, baholovchi fikrlardan saqlanish;
- o'zlarining bolalik, o'smirlik davrlarida qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirganliklarini hikoya qilish, hozirgi yoshdagi bolalar bilan solishtirishda bolaning foydasiga bo'lmagan taqqoslashlardan saqlanish;
- o'z ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlari, yuzaga kelgan nizolar va ularni hal qilish usullari haqida so'zlab berish;
- hozirgi vaqtda kattalarni nima qiziqtirayotgani bilan bo'lishish, ya'ni ularning kundalik hayotini to'ldiradigan narsalar haqida gapirish.

Bunday o'zaro fikr almashish emosional masofani qisqartiradi va oila a'zolarini yaqinlashtiradi.

Shu sababli ajralgan oilalarda bolalar tarbiyasining pedagogik muammolarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ajralgan yoki to'liq bo'lmagan oilalar deganda, ota-ona nikohining buzilishi natijasida bolani faqat bitta ota yoki ona tarbiyalayotgan oilalar tushuniladi. Bunday oilalar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik muhitga ega bo'lib, tarbiya jarayonida ayrim cheklovlar mavjud bo'ladi.

Ajralgan oilalarda tarbiyaviy jarayonning murakkabligi, avvalo, oiladagi rollarning o'zgarishi bilan bog'liq. Ota yoki onaning yo'qligi bolaning jinsiy identifikatsiyasi, ijtimoiy tajribasi va emotsional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ota ishtirokinining yetishmasligi bolalarda intizom, mas'uliyat va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ajralgan oilalarda moddiy sharoitning yomonlashuvi, ota-onaning bandligi va ruhiy zo'riqishi tarbiyaviy jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Bu holatlar pedagogik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ushbu muammolar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

### 1. Psixologik muammolar

Ajrim jarayoni bolada ruhiy jarohat qoldirishi mumkin. Bolalarda xavotir, tushkunlik, tajovuzkorlik yoki o'ziga yopilish holatlari kuzatiladi. Bu holatlar bolaning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### 2. Ta'lim motivatsiyasining pasayishi

Oiladagi beqarorlik bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Nazoratning yetishmasligi va emotsional qo'llab-quvvatlashning kamligi o'quv faoliyatida sustlikka olib keladi.

### 3. Xulq-atvor muammolari

Ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda intizomsizlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy normalarga rioya qilmaslik holatlari ko'proq uchraydi. Bu esa sinf jamoasida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

#### 4. Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar

Bunday bolalar jamoadan chetlanish, o'zini boshqalardan kam his qilish holatlariga duch kelishi mumkin. Bu ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ajralgan oilalarda bolalar tarbiyasidagi muammolarni bartaraf etishda pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Pedagog bolaning oilaviy sharoitini inobatga olib, individual yondashuvni amalga oshirishi zarur.

Pedagogik yondashuv quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- bolaga nisbatan tushunish va mehribonlik
- psixologik qo'llab-quvvatlash
- ta'lim motivatsiyasini oshirish
- ijobiy xulq-atvorni shakllantirish

Shuningdek, pedagog bolaning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoaviy ishlarga jalb etish orqali uning moslashuv jarayonini yengillashtirishi mumkin.

Ajralgan oilalarda bolalar tarbiyasida maktab va oila hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Ota-ona va pedagog o'rtasidagi muntazam aloqa bolaning rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onaning hamkorligi orqali:

- bolaning muammolari erta aniqlanadi
- individual tarbiyaviy reja ishlab chiqiladi
- tarbiyaviy ta'sir samaradorligi oshiriladi

Hamkorlikning yo'qligi esa pedagogik muammolarning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli, hamkorlik pedagogik muammolarni osonlashtirishda juda katta ahamiyatga ega.

Ajralgan oilalarda bolalar tarbiyasidagi pedagogik muammolar ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni bartaraf etish ko'plab omillarga bog'liq. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bitta chorani qo'llash yetarli emas; kompleks yondashuv talab qilinadi. Quyida ushbu yondashuvning asosiy jihatlari tahlil qilinadi:

1. pedagogik va psixologik maslahatlar tashkil etish
2. individual ta'lim va tarbiya dasturlarini ishlab chiqish
3. bolalarda ijobiy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish
4. maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish
5. kompleks yondashuv va hamkorlikning ahamiyati

#### 1. Pedagogik va psixologik maslahatlar

Pedagogik va psixologik maslahatlar bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi (Abdullaeva, 2019; Xolmatova, 2021). Bu maslahatlar nafaqat maktabda, balki oilaviy muhitda ham amalga oshirilishi lozim. Masalan, pedagog va psixolog bolaning

oilaviy holatini o'rganib, unga mos individual yondashuvni belgilaydi, oilaga esa tarbiyaviy strategiyalarni tavsiya qiladi. Shu orqali bolada xavotir va stress darajasi kamayadi, ijtimoiy va emotsional moslashuv yaxshilanadi.

### 2. Individual ta'lim va tarbiya dasturlari

Ajralgan oilalarda tarbiyaviy imkoniyatlar cheklangani sababli, individual ta'lim va tarbiya dasturlarini ishlab chiqish zarur (Musurmonova, 2020; Qodirova, 2022). Har bir bola o'ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgani uchun standart yondashuv yetarli bo'lmaydi. Individual dasturlar bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, maktabda qo'shimcha darslar, konsultatsiyalar yoki mentorlik dasturlari tashkil etilishi mumkin.

### 3. Bolalarda ijobiy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish

Ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda ijobiy hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega (Karimova, 2018; Abdullaeva, 2019). Bu ko'nikmalar o'zaro muloqot, muammolarni hal qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Pedagoglar va ota-onalar bolani faol hayotiy pozitsiyada bo'lishga o'rgatishi lozim, shu orqali u jamiyatda o'z o'rnini topadi va ruhiy barqarorlikni saqlaydi.

### 4. Maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish

Pedagogik muammolarni bartaraf etishning muhim yo'nalishlaridan biri — maktabdagi sog'lom psixologik muhitni ta'minlashdir (Xolmatova, 2021; Sultonova, 2021). Sog'lom psixologik muhit bolaning o'zini xavfsiz va qulay his qilishini ta'minlaydi, shuningdek, ijtimoiy faoliyat va o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Bunda sinf jamoasida qo'llab-quvvatlash tizimlari, ijobiy intizom mexanizmlari va pedagogik nazoratning samarali tashkil etilishi muhim rol o'ynaydi.

### 5. Kompleks yondashuv va hamkorlikning ahamiyati

Yuqorida sanab o'tilgan choralar alohida qo'llanilganda ham samaradorligi cheklangan bo'lishi mumkin (Musurmonova, 2020; Qodirova, 2022). Shu sababli kompleks yondashuv zarur: pedagog, psixolog, ota-ona va maktab hamkorligi bolalarning ijtimoiy, psixologik va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi. Bu yondashuv orqali ajralgan oilalardagi bolalarning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ruhiy barqarorligi ta'minlanadi.

Ushbu chora-tadbirlar bolaning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv zamonida ajralgan oilalarda bolalar tarbiyasidagi pedagogik muammolar murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday muammolar nafaqat bolaning psixologik holati va ijtimoiy moslashuviga, balki ta'limdagi muvaffaqiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ajralgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko'pincha emotsional beqarorlik, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik va maktabdagi qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli,

bunday pedagogik muammolarni samarali bartaraf etish pedagog, ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasidagi doimiy va uzviy hamkorlikni talab qiladi.

Samarali pedagogik yondashuvlar bolaning individual psixologik qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi, unga ijobiy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi va uni jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlaydi. Individual ta'lim va tarbiya dasturlari, psixologik maslahatlar, maktabdagi sog'lom muhit va ota-onalar bilan muntazam aloqalar orqali bolalar o'zlarining ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini rivojlantiradi, stress va xavotir darajasi esa sezilarli darajada kamayadi.

Bundan tashqari, kompleks yondashuv ajralgan oilalardagi bolalarning ruhiy barqarorligini mustahkamlash, ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirish va jamiyatga moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar, psixologlar va ota-onaning doimiy hamkorligi, shuningdek maktabda qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik muhitni yaratish bolaning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu tarzda, ajralgan oilalardagi bolalar ijtimoiy jihatdan faol, moslashuvchan va psixologik jihatdan barqaror shaxslar sifatida shakllanishi mumkin.

Natijada, ajralgan oilalarda bolalarning tarbiyasi murakkab bo'lishiga qaramay, tizimli, ilmiy asoslangan va kompleks pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali ular shaxs sifatida o'sadi, o'z salohiyatini rivojlantiradi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika va psixologiya metodlarini tatbiq etish, maktab-oila hamkorligini yo'lga qo'yish va individual yondashuvni amalga oshirish bolalarning ijtimoiy va emotsional moslashuvini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Karimova M. Oila pedagogikasi asoslari. -Toshkent, 2018.
2. Abdullaeva Sh. Bolalar psixologiyasi.- Toshkent, 2019.
3. Musurmonova O. Tarbiya nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent, 2020.
4. Xolmatova G. Pedagogik muammolar va ularning yechimlari. -Toshkent, 2021.
5. Qodirova D. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2022.
6. Sultonova, N. (2021). Maktab va oila hamkorligi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Pedagogika va Jamiyat.
7. Воспитание детей в неполной семье: Перевод с чешского / (З. Марова, З. Матейчик, С. Радванова и др.). -М.: Прогресс.
8. Гурко Т. А. Вариативность представлений в сфере родительства // СОЦИС.
9. Ковалёв С. В. Психология современной семьи. -М.: Просвещение,
10. Куликова Т. А. Семейная педагогика и домашнее воспитание.-М.: Академия.
11. Макаренко А. С. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах. Т. 2. - М.: Педагогика.
12. Мудрик А. В. Введение в социальную педагогику.-М.: Институт практической психологии.